AVTOTRANSPORT KORXONASIDA ISHCHILAR MEHNATINI TASHKIL ETISH

Jabborov Dilshod Baxromovich
Jizzax politexnika instituti
Asrorov Xabibullo
Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada avtotransport korxonasida ishchilar mehnatini taqsimlanishi tushunchasining mohiyati yoritilgan bo‘lib hamda uning amal qilish tamoyillari va rag‘batlantirish usullari o‘rganilib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatni taqsimlanishi, mehnat intizomi tamoyillari, ijara va jamoaviy ish, ta’mirlash ishlari, mehnat uchun rag‘batlantirish.

Аннотация

В данной статье освещена сущность понятия разделение труда работников на автотранспортном предприятии, а также рассмотрены принципы его применения и методы стимулирования.

Ключевые слова: разделение труда, принципы трудовой дисциплины, арендная и коллективная работа, ремонтные работы, стимулы к труду.

Annotation

This article covers the essence of the concept of the distribution of workers ' labor at a carport enterprise and explores the principles of its operation and methods of promotion.

Keywords: division of Labor, principles of labor discipline, rent and collective work, repair work, incentives for Labor.

Haydovchilarning mehnatini tashkillashtirish o‘ziga xos uslublari keyingi paytlarda ilmiy izlanishlar doirasida e’tibordan chetda qolayotgan masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Haydovchilarning mehnatini tashkillashtirish o‘ziga xos uslublari asosan mehnatni taqsimlash va har xil turdagi (ko‘rinishdagi) jamoaviy usulni tashkillashtirishni rivojlantirish, kasb-korlarini keng miqyosida birga qo‘shib olib borishdagi muammolar tadqiqot ishining dolzarbligini yanada oshiradi.

Haydovchilarning mehnatini hamkorlashtirishning asosiy usuli brigadaviy uslubi-harakatdagi tarkibdan unumli foydalana olishiga imkon beradi. Tezkor rahbarlikni va ishiyuzasidan nazoratni ta’minlash darajasini oshiradi, ish jarayoni yaxshilaydi (ish vaqtidan tashqari ishlangan vaqtga haq to‘lash), korxonada xizmat ko‘rsatuvchilarning ishlovchilar bilan mehnatdagi hamkorligini (do‘stligini) kengaytirdi.

Avtomobil transportida ijara va jamoaviy ish uslub keng tarqalgan bo‘lib, ularning afzalligi quyidagicha ifodalanadi:

- avtotrasnport va ishlab chiqaruvchilar xizmatining foyda berishini oshirish;
- xo‘jalik hisob-kitobini (hisobini) mustahkamlash haydovchilar mehnat jamoasini boshqaruvini yashilash;
- brigada mehnatini oxirgi natijasi uchun jamoaviy javobgarlikka shart-sharoit yaratish, qaysikim ishlab chiqarish jamoasi a’zolari bir-biri bilan o‘zaro umumiy iqtisodiy va javobgarlik nuqtai nazari bilan uzviy bog‘langan;
- mehnat kollektivlar barqarorligini, mustaqilligini oshirish;
- yosh haydovchilarning o‘quvi va kasb mahoratini oshirishga sharoit yaratish.

Olimlarning fikricha “Mehnat intizomi to‘rt jihatda huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi: mehnat huquqi tamoyillaridan biri sifatida, mehnat huquqi mustaqil instituti sifatida (ob’ektiv xususiyat), mehnat huquqiy munosabatlari unsuri sifatida (sub’ektiv xususiyat), haqiqiy xulq-atvorni huquqiy baholash sifatida [1,40].

Brigadalarni tuzishda asosiy muhim shartlardan biri ularni to‘g‘ri shakllantirish hisoblanadi. Brigada pudratini foydali qo‘llanishida avtomobillar haydovchilari brigadasini albatta, aniq ko‘rsatilgan ish ob’ektiga (ish joyiga) bog‘lash zarur. Pudrat brigadalaridagi avtomobillar miqdori va haydovchilar soni rejalashtirilgan yuk tashish hajmidan kelib chiqqan holda o‘rgatiladi, avtomobillardan foydalanishning texnikaviy-ishlatish ko‘rsatkichlari xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ishining holati va shart-sharoitiga ko‘ra hisobga olinadi, shuningdek ishning bajarish muddatiga ko‘ra hisobga olinadi, shuningdek ishning bajarilish muddatlari ham e’tiborga olinadi. Sotsiologik (ijtimoiy) tekshiruvlar natijasi tavsiyasiga ko‘ra haydovchilar brigadasini tuzish asosan ko‘ngilli tarzda har xil (turli) yoshdagi xodimlar (ishlovchilar) va har xil ish (stajli (ish muddati) xodimlardan bo‘lmog‘i lozim. Bu o‘z navbatida brigadada axloqiy-ishlab chiqarish iqlimini vujudga keltiradi, o‘zaro yordam va o‘zaro tushunishni durust tashkilotlarga olib keladi.

Pudrat shartnomasi tomonlarning shartnomaviy majburiyatlarga rioya qilinishiga javobgarlikni aniqlaydi va shart buzilgantaqdirda sanksiya javobgarlikka tortish bera oladi, shuningdek barcha tomonlarning imzolangan shartnomasi asosida o‘zaro hisob kitoblar tartibini belgilaydi. Haydovchilarga avtomobillarni to‘da (gruppa) xurujida (variant) biriktirish (berkitish) asoslari va ularga qisqacha tavsiyalar quyidagi jadvalda keltiriladi (jadval 1).

Jadval 1

Haydovchilarga avtomobillarni to‘da (gruppa) xurujida (variant) biriktirish (berkitish) asoslari va ularga qisqacha tavsiyalar

Avtomobillarning birkitilishi tizimi	Haydovchilarga avtomobillarni biriktirish (berkitish) varianti (guruhi)	Guruhga (variant) qisqacha tavsiya
Bittalik yoki yakka	Bir haydovchiga bitta avtomobil biriktirilgan (berkitish)	Haydovchi har kuni 1 smenada ishlaydi. Avtomobil faqat 1 smenada ishlatiladi.

Bir yarimtalik	Uchta haydovchiga 2 ta avtomobil biriktirilgan	Har bir haydovchi 1 smenada 2 kundan ishlaydi. Uchinchikun dam olish kuni. Avtomobil bir smenada foydalaniladi, xolos.
Ikkilantirilgan	Ikkita haydovchiga 1 ta avtomobil berkitilgan har bir uchta brigada haydovchilariga - bitta almashtiruvchi (podsmensiya)	Har bir haydovchi har kuni yoki ertalabki, yoki qechqurungi smenada ishlaydi. Avtomobildan har kuni ikki smenada foydalaniladi.
Juftlik	Ikki haydovchiga bir avtomobil biriktirilgan	Har bir haydovchi bir smenada 11 soat davomida bir kun qo‘yib bir kun ishlaydi. Avtomobildan har kuni 11 soat foydalaniladi.
Ikki yarimtalik	Beshta haydovchiga ikkita avtomobil berkitilgan	Har bir haydovchi to‘rt kun davomida ertalabki yoki kechki smena (muddat)da ishlaydi, beshinchi (5) kun dam olish kuni, undan so‘ng smenalar almashadi. Avtomobilda har kuni 2 (ikki) smenada foydalaniladi.

ATK (avtotransport korxonasi)dagi ta’mirlovchi ishchilarning asosiy ishlari qatoriga avtomobillar va ularning agregatlarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish, shuningdek ehtiyoj qismlarni tayyorlash kiradi. Ta’mirlovchi ishchilarning asosiy va yordamchi ishlarga bo‘linishi ATKning texnikaviy xizmat ko‘rsatishida markazlashgan boshqaruv tizimini va yangi ko‘rinishdagi (turdagi) ishchilarni vujudga keltiradi.

Mehnat intizomini tarbiyalash va mustahkamlash ishida mehnat jamoalari rolini oshirish va ularga berilgan huquqlardan sama rali foydalanish muhim yo‘nalish bo‘lishi kerak [2, 234 b].

Bular jamlovchi (komplektovanie) slesrarlar bo‘lib ular yordamida ishlarni bajaradilar,0 ya’ni (zarur bo‘lgan asbob uskunalarni omborxonadan ish joyiga etkazish, tayyor mahsulotlarni texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash joyidan omborxonaga olib borish, avtomobil agregatlarini, qismlarini, detallarini ta’mirlashga yuborishdan avval (oldin) yuvish va h.k.) Ta’mirlovchi ishchilarning mehnatini taqsimlashning va jamlashning (koopsratsiya) ifodali aniq uslubini tanlashda eng avvalo o‘rganish va chuqur analiz qilish zarur: har xil texnologik ishlarni bajarilishini amalga oshirish safrlangan vaqt, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash darajasi, texnologik jarayonlardagi haqiqiy sermehnatlik.

Bizning fikrimizcha ATK doirasida ta’mirlash ishlari jamoaviy ijara pudrati asosida amalga oshiriladi. Bu borada pudrat asosida tuzilgan shartnoma shuningdek iqtisodiy javobgarlikni ortishini (o‘sishini) va ushbu jamoalarning qiziqishini, avtomobillarning bir maromda ishlashini va ularni ish joylariga muddatida chiqarilishini ta’minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1.Azizova S.X. Mehnat intizomi tushunchasi, tamoyillari va rag‘batlantirilishi. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansы 2018, 8(116) - 40 b.

2. Маренков Л.И., Алимарина Е.А. «Управление трудовыми ресурсами» Серия высшее образование. Ростов на Дону: из-во «Феникс», 2004 - 234 с.

3. Kuryazov, D., Jabborov, D., & Khujamuratov, B. (2020, October). Towards decomposing monolithic applications into microservices. In 2020 IEEE 14th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT) (pp. 1-4). IEEE.

4 Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda kadrlarning gender tengligi." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 208-215.

5.Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(05), 126-130.

6.Gulmira, U. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314-319.

7.Darvishaliyevna, N. D. (2023). Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 3(1), 62-66.

8.Мелибоева, М., & Мелибоев, А. (2024). Развитие управления экономической компетентностью промышленных предприятий в регионах. Журнал универсальных научных исследований, 2(4), 418-425.

9.Sh, U. G., & Khurmatov, B. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 401-404.